

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30/042021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MUSURMANOV RAXMATILLA

**MODERNIZATSIYALASHGAN TA'LIM SHAROITIDA O'QUV-TARBIYA
FAOLIYATINI KLASSTER TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK
ASOSLARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of Doctor of Sciences (DSc) on pedagogical sciences

Musurmanov Raxmatilla

Modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida o'quv-tarbiya faoliyatini klaster texnologiyalari asosida takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari3

Мусурманов Рахматилла

Научно-педагогические принципы совершенствования учебно-воспитательной деятельности на основе кластерных технологий в модернизированных образовательных условиях30

Musurmanov Rakhmatilla

Scientific and pedagogical foundations for improving educational activities based on cluster technologies in a modernized educational environment59

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....70

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30/042021.Ped.82.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MUSURMANOV RAXMATILLA

**MODERNIZATSIYALASHGAN TA'LIM SHAROITIDA O'QUV-
TARBIYA FAOLIYATINI KLASSTER TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

Faa doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.DSc/Ped714 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.cspg.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida www.ziyounet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Muxamedov Gafurdjan Israilovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Matchonov Sapo Marodovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasimov Baxtiyor Xodayberdiyevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Ismailova Zuxra Karabayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30/042021.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi ilmiy kengashning 202_-yil "6" 09 sent 14⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy) Tel.: (99871) 716-68-04; faks (99871) 716-68-11; e-mail: tvchdnu@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (389 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy) Tel.: (99871) 716-68-04; faks (99871) 716-68-11; e-mail: tvchdnu@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 202_-yil "26" 08 kuni tarqatildi.
(202_-yil "26" 08 daqi 41- raqamli roestr bayonnomasi).


U.N. Xodjamqulov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash

T.T. Kadiyeva
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
f.d., dotsent
R.A. Eshehanov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy seminar raisi, b.f.d., prof.

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'lim, tarbiya ijtimoiy-madaniy munosabatlardagi tub o'zgarishlar, jamiyatning globallashuvi va axborotlashuvi sharoitida umumiy o'rta ta'limni modernizatsiyalash jarayoni ta'limning intellektual, madaniy, ijtimoiy va texnik asoslarini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarni tarbiyalashda pedagogik klaster yondashuvini makro, mezo, mikro darajalarda joriy etish zaruratini taqozo etmoqda. YUNESKONing Berlin deklaratsiyasi va Ta'lim–2030 xalqaro harakat dasturida ta'kidlanishicha, ta'lim va tarbiyaviy ishlarni rivojlantirishda innovatsiyalarni qo'llashning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Bugungi kunda pedagogik oliy ta'lim muassasalarida klaster yondashuvi asosida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishning didaktik imkoniyatlarini o'rganish dolzarb ilmiy vazifa sanaladi. Ushbu yondashuv tarbiyaviy jarayonni tizimli va integratsiyalashgan tarzda tashkil etishga imkon beradi. Shuningdek, talabalarda ijtimoiy faollik, mas'uliyat va ma'naviy ongni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, klaster yondashuv zamonaviy pedagogik amaliyotda muhim metodologik asos sifatida qaralmoqda.

Dunyoning rivojlangan AQSh, Angliya, Yaponiya, Xitoy, Singapur, Rossiya kabi davlatlarida ta'lim-tarbiyaga innovatsiyalarni keng joriy etish orqali yuksak kasbiy madaniyatga ega raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, pedagog olimlar tomonidan o'quvchilarda umummadaniy kompetensiyani shakllantirishda zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalarini tatbiq etish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda innovatsion yondashuvlarga asoslangan hamkorlik mexanizmlari joriy etilmoqda. Dunyo ta'lim amaliyotida hamkor subyektlarning salohiyatidan oqilona foydalanish, xususan, klaster yondashuvi asosida ko'p tomonlama manfaatli hamkorlik shakllari, vositalari va usullarini amaliyotga tatbiq etish orqali ta'lim va tarbiya sifati hamda samaradorligini oshirishga nisbatan zarurat ortmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar natijasi hamda 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish"¹ tamoyili asosida iqtidorli o'quvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ichki qobiliyatlarini, tayanch kompetensiyalarini, zamonaviy ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Iqtidorli bolalarni aniqlash, ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llagan holda ularni o'qitish va tarbiyalash bo'yicha yaxlit tizim yaratish, iste'dodli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'nan yetuk va intellektual jihatdan barkamol avlodni shakllantirish"² mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'limiy islohotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuningdek, respublikamizda yangi avlod maktablari sifatida e'tirof etilayotgan maktab o'quvchilarining individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning ichki qobiliyatlarini, tayanch kompetensiyalari va zamonaviy ko'nikmalarini ta'limiy

¹ O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4199-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

qadriyatlar asosida rivojlantirish, ta'lim jarayonlariga SMART, Comfort learning, Selfstudy kabi o'qitish modeli va texnologiyalarini joriy etishning didaktik tizimini takomillashtirish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabridagi PF-158- son "O'zbekiston–2030 strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60–son "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-apreldagi 213-son "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.³

Modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida o'quv-tarbiya faoliyatini klaster texnologiyalari asosida takomillashtirish, berilgan topshiriqlar asosida hamkorlikda ishlash, ta'lim-tarbiya faoliyatini shakllantirishning metodik asoslari jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Arizona, Garvard, Michigan (AQSh), Kembrij, Oksford, Edinburg (Buyuk Britaniya, Shotlandiya), Strasburg universiteti (Fransiya), Seul milliy universiteti (Janubiy Koreya), Anqara universiteti, Gazi universiteti, Hacettepe universiteti, Ondokuz Mayis universiteti (OMU) (Turkiya), Moskva davlat pedagogika instituti (Rossiya), M.Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti, L.N.Gumilyov nomidagi Yevroosiyo milliy universiteti (Qozog'iston), O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Dunyo ta'lim tizimida umumta'lim maktablarida pedagogik klaster yondashuvi

³ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida yoritilgan: Ariogul, S. (2001). The Teaching of Reading Through Short Stories in Advanced Classes. Unpublished M.A Thesis. – Ankara: Hacettepe University; Brumfit, C.J., & Carter, R.A. (1986). Literature and language teaching. – Oxford: Oxford University Press; Carter, R. & Long, M. (1991). Teaching Literature. – Harlow: Longman; Hill, J. (1989). Using Literature in Language Teaching London. – London: Macmillan; Lazar, G. (1993). Literature and Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press; Parkinson, B. & Thomas, H.R. (2000). Teaching Literature in a Second Language. – Edinburgh: Edinburg University Press; Obediat, M. (1997). —Language Vs Literature In Departments In the Arab World in English Teaching Forum. Ögeyik, Muhlise C. (2007). Attitudes of the Students in English Language Teaching Programs towards Literature Teaching. Eurasian Journal of Educational Research, 27. – P. 151–162. Ujjwala, K. (2013). English Language Teaching Through Literature. Journal of Golden Research Thoughts, Vol. 2 (11).

asosida tarbiyaviy ishlarni rivojlantirish, amaliy topshiriqlar, kundalik vaziyatlardagi real voqealik, pedagogik qadriyatlar bilan uzviy bog'lash, o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga oid trening, seminar va ommaviy tadbirlar ssenariy, ishlanma va dasturlari ishlab chiqish, an'analarni targ'ib qilish, adabiy qahramonlar fazilatlarini shaxsiy sifatlarda aks ettirish, holat va harakatlarning psixologik tavsifi asosida shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini belgilash (AQSh); turli millat xalqlarining o'ziga xos an'analari va tafakkur uslubini axloqiy fazilatlar orqali ochib berish strategiyalari, insoniylik va umummadaniyatni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish (Germaniya); o'quvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayoni samaradorligi kasbiy mahorat, deontologik sifatlar kabi akmeologik yondashish asosida o'ziga xoslikning ijtimoiy-tarixiy va madaniy kontekstlarini aniqlash (Angliya); mavzu mohiyatini o'rganish jarayonida muhim elementlarni tahlil qilish, klaster yondashuvi asosida tarbiyaviy ishlarni rivojlantirish, o'quvchilarning dars jarayoniga nisbatan bo'lgan salbiy munosabatlari sabablarini aniqlashga yo'naltirilgan turli yondashuvlar orqali ota-onalar, mahalla, davlat hamda real vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash masalalari tahlil qilingan (Turkiya).

Jahonda qadriyat yo'nalishlarining ta'limiy jihat, pedagogik qadriyatni shakllantirish mexanizmlari va ularni rivojlantirishning metodik imkoniyatlarini umumpedagogik fanlarga integratsiyalab o'qitishga doir quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: milliy va umuminsoniy qadriyatlarning pedagogik talqini, ta'limning insonparvarlashuvi sharoitida o'quvchilarning bilish faoliyatini motivatsion-qadriyatli munosabatlarda tadqiq etish, pedagogik qadriyatlarga o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi imkoniyatini hisobga olgan holda, ma'naviy, milliy, siyosiy, huquqiy, oilaviy, mehnat, umummadaniy, umuminsoniy va badiiy-estetik shakllariga alohida e'tibor qaratish kabi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. R.Safarova, B.S.Abdullayeva, U.Musayev, N.Ortiqov, N.M.Egamberdiyeva, S.T.Yuldasheva, Sh.Z.Taylanova, D.R.Salixova, B.Xodjayev, N.I.Raxmonova, J.Tulenov, Sh.Q.Mardonov⁴ tadqiqotlarida qadriyat mazmuni va aksiologik yondashuvlar, o'quvchi tarbiyasida qadriyatning zarurati, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tadqiq etilgan. Modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida maktab darslarining ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning nazariy jihatlar, barkamol shaxsni tarbiyalash masalasining pedagogik aspektlari R.Djurayev, M.Quronov, X.Ibragimov, Sh.Mardonov, G.Ibragimova, M.Inomov, A.Isimova, Z.Ismoilova, S.Yo'ldosheva, U.Mahkamov,

⁴ Safarova R. O'zbekistonning boshlang'ich ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalarni joriy etishning nazariy va amaliy asoslari // p.f.d....diss. –Toshkent, -1998. -248 b.; Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi akademik litseylarda matematika o'qitish misolida) // p.f.d....diss.avtoreferati. –Toshkent, 2006.; Egamberdiyeva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (Pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida) // p.f.d. ... diss. –Toshkent, 2010. – 332 b.; Taylanova Sh.Z. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish // p.f.d....diss.avtoreferati. –Samarqand, 2019. -66 b.; Xodjayev B. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish // p.f.d. ... diss. avtoreferati. –Toshkent, -2016. –82 b.; Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. –Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 72 b.; Mardonov Sh.Q. Pedagog kadrlarni ta'limiy qadriyatlar asosida tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. ...diss. –Toshkent, 2006. – 302 b.

M.Mahmudova, A.Munavvarov, O.Musurmonova, S.Nishonova, N.Ortiqov, M.Ochilov, S.Ochilov, K.Risqulova, D.Ro‘ziyeva, M.Q.Raxmanova, N.Egamberdiyeva; pedagogik ta‘lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari, ta‘limda hamkorlik mexanizmlarining innovatsion shakllari, klaster modelining uzluksizlik, uzviylik va izchillik tamoyillari hamda uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari G‘.I.Muxamedov, U.N.Xodjamqulov, Sh.I.Botirova, S.A.Toshtemirova, N.M.Koshanovalarning⁵ ishlarida muayyan darajada yoritilgan.

MDH olimlari A.V.Barabanshikov, F.G.Bondar, V.E.Gurman, L.Yu.Gordin, I.Dolinskaya, B.P.Yesipov, D.Leychenkov, N.S.Lukin, O.N.Maykina, G.Xolodyuk, G.I.Shukina, A.L.Artamonov, V.P.Bespalko, Yu.K.Babanskiy, S.Ya.Batishev, N.V.Kuzmina, I.Ya.Lerner, S.G.Pashkova, N.N.Xiridina⁶ va boshqalar pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash borasida; V.A.Slastenin, G.I.Chijakova, E.N.Shiyanov, N.E.Shurkova, I.P.Podlasiylar⁷ umuminsoniy qadriyatlar, ta‘limda tarbiyaning ahamiyatini; A.Glinskiy, L.Gribenyuk, N.Kurbet, N.Nekrasova, V.Medvedev, A.Xutorskiy⁸ kabilar o‘quvchilarda tanqidiy, ijodiy fikrlashni shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarning psixologik-pedagogik jihatlarini, rivojlantirish mexanizmlarini; O.S.Gazman, E.V.Bondarevskaya, Sh.A.Amonashvili⁹ aqliy rivojlanish hamda o‘quvchilarning axloqiy qadriyatlari va shaxsiy fazilatlarini shakllantirish masalalarini;

⁵ Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования. // Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – СПб., 1995.– 43 с.; Quronov M. O‘zbekiston umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped.fan.dok. ... diss. –Toshkent, 1998.–316 b.; Ибрагимов Х. Теоретические основы профессионального самовоспитания будущих учителей начальных классов./дисс...д.п.н. –Ташкент, НИИПНУз. 2006 – 307 б.; Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish // p.f.f.d.(PhD) diss.avtoreferati. T., 2017. 39 b.; Ismailova Z.K. Talabalarning kasbiy pedagogik malakalarini shakllantirish. // p.f.n. ... dis. –Toshkent, 2000. 153 b.; Musurmonova O. Yuqori sinf o‘quvchilari ma‘naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped.fan.dok. ...diss. –Toshkent, 1993. – 364 b.; Nishonova S. Sharq uyg‘onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi: Ped.fan.dok. ... diss. –Toshkent, 1998. –288 b.; Ro‘ziyeva D. Oliy ta‘lim muassasasi talabalarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. –Toshkent, 2007. – 255 b.; Mahmudova G. Oliy pedagogik ta‘lim tizimida talabalarni ma‘naviy shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari.: Ped. f. n. ... diss. avtoref. –Toshkent, 2004. – 23 b.; Muhamedov G.I., Xodjamqulov U., Toshtemirova S. Pedagogik ta‘lim innovatsion klasteri. T., Universitet 2022.; Botirova Sh.I. Adabiy ta‘lim klasterining ilmiy-nazariy asoslari // p.f.d. (DSc) diss. avtoref. –Chipchiq, 2021. – 60 b.; Koshanova N.M. Sinf murabbiylari faoliyati samaradorligini oshirishda pedagogik ta‘lim klasterining o‘rni // «Mug‘allim ham yzliksiz bilimlendiro‘» № 1-1.2020. 35-b.

⁶ Беспалько, В.П. Основы теории педагогических систем: проблемы и методы психологик-педагогического обеспечения технических обучающих систем: монография [Текст] / В. П. Беспалько. – 3-э изд. – Воронеж: Изд-во Воро- неж. ун-та, 2011. – 304 с.; Бабанский Ю.К. Проблема повышения эффективности педагогических исследований [Текст] / Ю.К. Бабанский. – М.: Педагогика, 1982. – 182 с.; Кузмина Н.В. Системный подход в педагогических исследованиях [Текст] / Н.В. Кузмина // Методология педагогических исследований. – М.: НИИ ОП АПН СССР, 1980. – С. 82-117.

⁷ Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Мищенко А.Н., Шиянов Е.Х. Педагогика. / Учебное пособие для студентов учебных заведений. – М.: Школа-пресс, 1997. – 492 с.;

⁸ Глинский А.С. Развитие познавательной активности учащихся с применением акмеологического подхода // Автореф. дис. ... кан. пед. наук. – Омск., 2007. –23 с.; Грибенюк Л.Г. Акмеологический подход в проектировании гимназического образования // дис. ... кан. пед. наук. – Калуга., 2004.– 197 с.; Хуторской А.В. Определение общепредметного содержания и ключевых компетенций как характеристика нового подхода к конструированию образовательных стандартов // Компетенции в образовании: опыт проектирования: сборник научных трудов / под ред. А.В. Хуторского. – М.: «ИНЭК», 2017. – С. 12–20.;

⁹ Бондаревская Е.В. Теория и практика личностно-ориентированного образования. - Ростов-на-Дону: Изд-во Ростовского педагогического ун-та, 2000.-352 с.; Газман О.С.Неклассическое воспитание. От авторитарной педагогики к педагогике свободы. М.: МИРОС, 2002. –296 с.;

E.V.Bondarevskaya, T.I.Vlasova, T.I.Petrakova¹⁰lar aksiologik va antropologik yondashuvlar nuqtayi nazaridan shaxsning asosiy xususiyatlari ma'naviyat, axloq va insoniylik, tashqi motivatsion soha bilan bog'liqligini, axloqning ijtimoiy jihatlari, xulq-atvor tamoyillari va normalari shaxslarning bir-biriga va jamiyatga munosabatida namoyon bo'lishi ilmiy g'oyalarni ilgari surgan.

Xorijda Yu.Porter, C.Wagner, M.Garner, D.Kulburn, Nguyen Van Tin, M.Nind, E.L.Cowen, U.Mangal kabi tadqiqotchilar vatanparvarlik va kasbiy madaniyatni rivojlantirish muammolari, D.S.Ruxen, L.X.Saljanik, J.Valijarvi, M.Uljens, S.T.Hopman, A.Rarrek, E.Verner, G.Brinek, M.Retzl, J.Sachs, P.Sahlberg, H.Niyemi, A.Toom, A.Kallioniyemi, Jakku-Sixvonen, G.Sukerman¹¹larning ilmiy izlanishlarida kompetensiya muammosi, ta'limdagi yangi yondashuvlar, ta'lim sifatiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ilmiy ishlar rejasining "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida o'quv-tarbiya faoliyatini klaster texnologiyalari asosida takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslarini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida o'quv-tarbiya faoliyatini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish;

maktab darslarining klasterli intizomiy omillarini takomillashtirishning didaktik tizimi va metodik ta'minotini takomillashtirish;

pedagogik klaster yondashuvi asosida o'quvchilarga ta'lim-tarbiyaviy ishlar, axloqiy tarbiya berishga tayyorlash jarayoni samaradorligining innovatsion pedagogik modelini ishlab chiqish;

umumta'lim maktablarida o'quv-tarbiya faoliyatini zamonaviy mexanizmlarini takomillashtirish;

o'quvchilarning dars jarayoniga nisbatan bo'lgan salbiy munosabatlari sabablarini aniqlashga yo'naltirilgan turli yondashuvlar orqali ota-onalar, mahalla, davlat va nodavlat tashkilotlari va keng jamoatchilik bilan ishlash vositalari, shakllari va usullari hamda mezonlarini takomillashtirish va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish.

¹⁰ Петракова Т.И. Святоотеческое учение и проблемы современной педагогики / Т.И. Петракова // Педагогика. – 2007. – № 2. – С. 59–68.; Власова, Т.И. Теоретико-методологические основы и практика воспитания духовности современных школьников: дис. ... д-ра пед. наук / Власова Татьяна Ивановна – Ростов-на-Дону, 1999. – 366 с.

¹¹ Портер М.Ю. Конкуренция.: Пер. с англ. - М.: Вильямс, 2000. -495 с. ISBN 5-8459-0055-7.;Mangal S.K., Fundamentals of Educational Technology, Ludhiana: Tandon Publications, 1994.; Jouni Välijärvi and Pasi Sahlberg, "Should 'Failing' Students Repeat a Grade? Retrospective Response from Finland," Journal of Educational Change 9, no. 4 (2008): 385–389.; Hopmann, S. (2007). Restrained teaching: The common cores of Didaktik. European Educational Research Journal, 6(2), 109–124. <https://doi.org/10.2304/eej.2007.6.2.109>; Uljens, M., & Ylimaki, R. M. (2017). Bridging educational leadership, curriculum theory and Didaktik. Springer.; Sahlberg, P. (2021). Finnish lessons 3.0: What can the world learn from educational change in Finland? Teachers College Press.; Jakku-Sihvonen, R., V. Tissari, A. Ots, and S. Uusiautti. 2012. "Teacher Education Curricula After the Bologna Process – A Comparative Analysis of Written Curricula in Finland and Estonia." Scandinavian Journal of Educational Research 56 (3): 261–275.10.1080/00313831.2011.581687.; Niemi, H. 2011. "Educating Student Teachers to Become High Quality Professionals – A Finnish Case." CEPS Journal 1 (1): –P. 43–66.

Tadqiqotning obyekti modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida maktab darslarining klasterli intizomiy omillarini barqarorlashtirish jarayoni bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar 7-umumiy ta'lim maktabi, viloyat pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi tinglovchilari, Samarqand tumanidagi 8-maktab hamda Toshkent viloyati, Chirchiq shahar 21-maktabdan 438 nafar respondentlar ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida o'quv-tarbiya faoliyatini klaster texnologiyalari asosida takomillashtirish shakllari, texnologiyalari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotni amalga oshirish va ilmiy-metodik xulosalarga kelishda pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish, qiyosiy tahlil, ijtimoiy metodlar (anketa, suhbat, intervyu), test, pedagogik kuzatish, modellash, pedagogik tajriba, matematik-statistika kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida o'quvchilarga klaster texnologiyalari asosida o'quv-tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik imkoniyatlari "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ko'zda tutilgan tarbiyaviy ta'sir shakllari va vositalarini maktablarda qo'llanishini milliy kontekst va mentallitet nuqtayi nazaridan ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish muammo sifatida asoslangan;

o'quvchilarning o'quv-tarbiya faoliyatini klaster texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ma'naviy muhit hamda ma'naviy idealning belgilovchi roli, ahamiyatini asoslash orqali maktablarda ma'naviy-axloqiy hamkorlik qobiliyatini rivojlantirishning didaktik tizimi hamda metodik ta'minoti aniqlashtirilgan;

pedagogik klaster yondashuvi asosida o'quvchilarga ta'lim-tarbiyaviy ishlar, axloqiy tarbiya berishga tayyorlash jarayonining pedagogik-psixologik xususiyatlari (pedagogik madaniyat, intellektual faollik, korreksiya)ga qayta ta'sir etish darajasi mutanosibligini kognitiv-maqсадli ta'minlash asosida anglash, uqtirish, o'zlashtirish kabi tarbiya berishga tayyorlash jarayoni samaradorligining innovatsion pedagogik modeli takomillashtirilgan;

o'quvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayoni samaradorligi kasbiy mahorat (o'quv mashg'ulotini loyihalash, pedagogik jarayonni boshqarish, pedagogik texnikaga ega bo'lish), deontologik sifatlar kabi akmeologik motivatsiya texnologiyalari motivatsion-diaagnostik moslashtirish mexanizmi takomillashtirilgan;

o'quvchilarning darsga bo'lgan salbiy munosabatlari sabablarini aniqlashga yo'naltirilgan turli yondashuvlar orqali zamonaviy ta'lim klasteri sharoitida maktab, oila, mahalla, davlat va nodavlat tashkilotlari va keng jamoatchilik bilan ishlash vositalari, shakllari va usullari hamda mezonlari aniqlashtirilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida pedagogik klaster yondashuvi asosida maktablarda ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning metodik ta'minoti takomillashtirilgan;

o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga oid trening, seminar va ommaviy tadbirlar ssenariy, ishlanma va dasturlari ishlab chiqildi hamda joriy etildi;

umumta'lim maktablarida pedagogik klaster yondashuvi asosida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishga oid elektron ta'lim resursi hamda o'quvchilarga motivasiya beruvchi topshiriqlar majmui ishlab chiqilgan;

umumta'lim maktablarida pedagogik klaster yondashuvi asosida tarbiyaviy ishlarni rivojlantirishga qaratilgan samarali tashkiliy-pedagogik metod hamda vositalardan iborat amaliy tavsiyalar tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoga pedagogik, psixologik va metodik yondashuvga ko'ra umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik klaster yondashuvi asosida o'quv-tarbiya faoliyatini takomillashtirish hamda pedagogik ta'lim sohasidagi respublikamiz, xorijiy olimlar, shuningdek, amaliyotchi pedagoglarning ishlariga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor, shuningdek, sifat jihatidan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumta'lim maktablarida pedagogik klaster yondashuvi asosida o'quv-tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishning metodik asoslari, ma'naviy tarbiya mezonlari ishlab chiqilganligi, tarbiyalash usullari takomillashtirilganligi, maktablarda tashkil etiladigan to'garaklar faoliyatini "Besh muhim tashabbus" asosida tashkil etish tuzilmasi takomillashtirilganligi bilan izohlanadi, o'quvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga doir kompetensiyalarning aniqlashtirilganligi; ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish jarayonini samarali loyihalash mexanizmlarining takomillashtirilganligi; umumta'lim maktablari o'quvchilarining axloqiy sifatlarini rivojlantirishning diagnostik tizimi ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'quvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishdagi imkoniyatlari, mazkur imkoniyatlarni ta'minlash metodlari, usullari, vositalari, rivojlantirish mexanizmi, ushbu jarayonni takomillashtirishga oid nazariy yondashuvlarga ega bo'lingani, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish ko'lamini kengaytirish va sifatini ta'minlash mexanizmlarining amal qilish yo'llari ilmiy jihatdan asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida o'quv-tarbiya faoliyatini klaster texnologiyalari asosida takomillashtirishga oid tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

tadqiqot doirasida umumta'lim maktablarida klaster texnologiyalari asosida o'quv-tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Bu jarayonda ma'naviy-axloqiy munosabatlarning xususiyatlari, integral diagnostikaga asoslangan baholash mezonlari, muloqot maydoni, shaxslararo masofa shkalasi va indeksiga oid takliflar ilgari surildi. Mazkur yondashuv asosida tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish, mavjud muammolarni aniqlash va tarbiya subyektlari o'rtasidagi funksional hamkorlikni kuchaytirish imkoniyati yaratildi (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 18-oktabr 03-33-2916-sonli ma'lumotnomasi). Natijalari maktab muhitida "o'quvchi-pedagog", "o'quvchi-ota-ona" kabi ma'naviy-axloqiy

munosabatlarni yaxshilashga xizmat qildi hamda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”da nazarda tutilgan tarbiyaviy ta’sir vositalarini milliy kontekstda qo’llashga ilmiy asos bo’ldi;

o’quvchilar jamoasidagi ma’naviy muhit darajasini belgilovchi integral pedagogik ko’rsatkichlar va shaxslararo muloqotda emotsional masofaning integral koeffitsienti ta’siriga oid takliflar, O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda, o’quvchilarning o’quv-tarbiya faoliyatini klaster texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, ma’naviy muhit va ma’naviy idealning belgilovchi roli va ahamiyatini asoslash orqali maktablarda ma’naviy-axloqiy hamkorlik qobiliyatini rivojlantirishning didaktik tizimi va metodik ta’minoti aniqlashtirildi. Xalq ta’limi tizimida tarbiyaviy ishlarga integrativ yondashuvni joriy etish bo’yicha tayyorlangan ko’rsatmalarni ishlab chiqishda qo’llanildi (Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2024-yil 18-oktabr 03-33-2916-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, mazkur ko’rsatmalar umumta’lim maktablarida sog’lom ma’naviy muhitni shakllantirish, shuningdek, “o’quvchi–o’quvchi”, “o’quvchi–guruh”, “o’quvchi–pedagogik jamoa”, “pedagog–pedagog”, “o’quvchi–ota-ona” kabi ma’naviy-axloqiy munosabatlarni samarali rivojlantirish imkonini berdi;

pedagogik klaster yondashuvi asosida o’quvchilarga axloqiy tarbiya berishga tayyorlash jarayoni takomillashtirildi. Tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash samaradorligi kasbiy mahorat va akmeologik motivatsiya texnologiyalari orqali oshirildi. Darsga salbiy munosabatlarni aniqlash, tarbiya jarayonini samarali boshqarish uchun yangi yondashuvlar ishlab chiqildi. Maktab, oila, mahalla, davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik usullari va mezonlari aniqlashtirildi. Ota-onalarning tarbiyaviy mas’uliyatini oshirish va maktab bilan hamkorlikni mustahkamlash orqali ma’naviy-axloqiy munosabatlarning monitoringi amalga oshirildi. Shuningdek, “Oila pedagogikasi” darsligida oilaviy tarbiyaning ma’naviy-axloqiy aspektlariga e’tibor qaratildi (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi № 429 buyrug’i). Natijada, innovatsion ta’lim klasteri asosida maktablarda o’quv-tarbiyaviy ishlar samaradorligi oshdi, tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayoni samaradorligi yuqori darajaga ko’tarildi va maktab, oila, mahalla, davlat va nodavlat tashkilotlari bilan samarali hamkorlik yo’lga qo’yildi;

o’quvchilarning darsga bo’lgan salbiy munosabatlari sabablarini aniqlashga yo’naltirilgan turli yondashuvlar orqali zamonaviy ta’lim klasteri sharoitida maktab, oila, mahalla, davlat va nodavlat tashkilotlari va keng jamoatchilik bilan ishlash vositalari, shakllari va usullari hamda mezonlari aniqlashtirilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining ma’naviy-axloqiy munosabatlarini integral diagnostika vositasida rivojlantirish modeli hamda unda subyektlar faoliyati funksiyalariga oid takliflaridan umumiy o’rta ta’lim maktablarida ma’naviy-axloqiy munosabatlarni integral diagnostika vositasida rivojlantirish modeli hamda unda subyektlar faoliyati funksiyalariga oid takliflardan T.N.Qori Niyoziy nomidagi O’zbekiston milliy tarbiya pedagogikasi instituti Qoraqalpog’iston filiali A1-XT-O-92997 raqamli “Yoshlarni umuminsoniy milliy va tarixiy qadriyatlar uyg’unligi asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” (14.10.2024-y. №410 raqamli ma’lumotnomasi) amaliy loyihasini bajarishda;

tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumta'lim maktablarida pedagogik klaster yondashuvi asosida o'quv-tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishning metodik asoslari, ma'naviy tarbiya mezonlari ishlab chiqilganligi, tarbiyalash usullari takomillashtirilganligi, maktablarda tashkil etiladigan to'garaklar faoliyatini "Besh muhim tashabbus" asosida tashkil etish tuzilmasi takomillashtirilganligi bilan izohlanadi, o'quvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga doir kompetensiyalarning aniqlashtirilganligi; ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish jarayonini samarali loyihalash mexanizmlarining takomillashtirilganligi; umumta'lim maktablari o'quvchilarining axloqiy sifatlarini rivojlantirishning diagnostik tizimi ishlab chiqilganligi O'zbekiston milliy teleradio kompaniyasi «O'zbekiston 24» ijodiy birlashmasi» davlat muassasasining ko'rsatuv va radio eshittirishlarida (6-may 2025-yilgi 05-09-606-son xati) foydalanilgan. Natijada, ota-onalarda oilada farzand tarbiyasi muammolariga yechim topish maqsadida taklif va tavsiyalardan foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 46 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 29 ta maqola, shundan respublika jurnallarida 18 ta, xorijiy jurnalda 11 ta maqola, shundan 1 tasi Scopus, Xalqaro konferensiyalarda 8 ta, respublika konferensiyalarida 4 ta, 1 ta darslik, 1 ta elektron darslik, 2 ta monografiya, 1 uslubiy qo'llanma chop ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rt bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 235 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati ilmiy asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritib berilgan, tadqiqotning ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati bayon etilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida o'quv-tarbiya faoliyatini klaster texnologiyalari asosida takomillashtirishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobi modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida o'quv-tarbiya faoliyatini klaster texnologiyalari asosida takomillashtirish, maktab o'quvchilariga ta'lim va tarbiya berish pedagogik-psixologik muammo sifatida o'rganilgan. O'quv-tarbiya faoliyati murakkab jarayon bo'lib, uning asosiy qismi axloqiy ong, axloqiy his-tuyg'u, xulq-atvor va irodani shakllantirish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Fan va texnikaning shiddat bilan rivojlanishi natijasida barcha sohalarga joriy qilinayotgan innovatsiyalarning maqsadi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini oshirishga

qaratilgan. Sohalarga innovatsiyalarni joriy qilish mavjud ish uslublariga nisbatan yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarida esa umumiy jihatlar va tabiiy qonuniyatlar mavjud bo'lib, bu borada o'ziga xos yangi yo'llarni qidirishdan ko'ra, ba'zan rivojlangan mamlakatlardagi tayyor andozalarni olish, ulardan ijodiy foydalanish yaxshiroq natija beradi. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlarida xalqaro tajribada sinalgan va mamlakat iqtisodiyotining ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etuvchi innovatsion tajribalarni qo'llashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ana shunday innovatsiyalardan biri "klaster modeli" bo'lib, bugungi kunda u mamlakatimizda ko'proq agrar, to'qimachilik, yengil sanoat va farmatsevtika sohalarida keng qo'llanilmoqda. Qisqa muddat ichida klaster modeli iqtisodiyotda istiqbolli innovatsion yo'nalish sifatida e'tirof etilib, uni boshqa sohalarda qo'llash tajribalari amalga oshirilmoqda.

Aslida "klaster" (cluster) so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, tarjima qilinganda "to'plam", "to'p", "guruh", "konsentrasiya", "guruhlarga to'plash", "to'plamlarda o'sish" kabi ma'nolarni anglatadi. Dastlab bu termin statistika va kompyuter sohasida paydo bo'lgan, keyinchalik iqtisodiyot va sotsiologiyada ham keng qo'llana boshlandi.

Klaster atamasi amerikalik iqtisodchi, Garvard maktabi professori, raqobat imkoniyatlarini o'rganish bo'yicha mutaxassis bo'lgan Maykl Yujin Porter tomonidan ilk bor qo'llanilgan. U klasterga geografik jihatdan qo'shni bo'lgan, bir-biri bilan bog'langan, muayyan bir sohada faoliyat olib boradigan hamda bir-birining ishini to'ldiradigan korxona va tashkilotlar birlashmasi sifatida ta'rif bergan. Uning fikricha, klasterlar quyidagi umumiy jihatlarga ega bo'lishi darkor: ilmiy-tadqiqot muassasalari mavjudligi; ish resurslari; raqobatbardoshlik holati; sohaga mansublik; maxsus o'quv muassasalarining mavjudligi; maxsus xizmatlarga egalik imkoniyatining mavjudligi; xomashyo yetkazib beruvchilarning yetarililigi...»¹².

Pedagogikada «klaster (cluster)» – «tarmoqlar metodi texnologiyasi» deb ham ataladi va bu metod mantiqiy fikrlash, umumiy fikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan, biron-bir mavzuni chuqur o'rganishdan oldin o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirishga xizmat qiladigan usul ma'nosida qo'llaniladi¹³.

Pedagogik ta'lim klasteri o'zaro bog'liq obyektlarni (ta'lim muassasalari, jamoatchilik va siyosiy tashkilotlar, ilmiy maktablar, universitetlar, ilmiy tadqiqot muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari va biznes tuzilmalari kabi) birlashtiruvchi moslashuvchan tarmoq tuzilmasi bo'lib, muayyan muammolarni hal qilish va aniq natijalarga erishish maqsadini ko'zlaydi. Pedagogik klaster o'quvchilarning sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini oshirish va pedagogik amaliyotlarda innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan tuzilma sifatida qaraladi. Pedagogik ta'lim klasteri o'zining tarkibiy elementlariga, o'zaro aloqadorlik infratuzilmasi va yo'nalishlariga ega. Uning asosiy elementi sifatida qo'yilgan vazifani bajarishda ishtirok etuvchi tashkilotlar (ta'lim muassasalari – universitetlar, o'rta maxsus ta'lim

¹² Potter, A., Williams M. Clustering in Small Primary Schools: an organi-sational case study // School Organisation. 1994. Vol.14. No.2. P.141-152. DOI: 10.1080/0260136940140203.

¹³ Jonathan Sallet and Ed Paisley Innovation Clusters Create Competitive Communities. - Huff Post Social News September 21, 2009.

muassasalari, maktablar va litseylar, kasb-hunar markazlari, biznes tuzilmalari) va muayyan tuzilma hamda bo'linmalarning qismi bo'lishi mumkin. Klaster tarkibi sharoitga bog'liq ravishda o'zgarishi va to'ldirilishi mumkin. Klaster infratuzilmasi ta'lim xizmatlari hajmi, ta'lim axborotlarining quvvati va intensivligi bilan tavsiflanuvchi ta'lim shart-sharoitlarining o'lchamlari va boshqa topologik xususiyatlarini belgilaydi. Pedagogik ta'lim klasteri ichidagi hamkorlik muayyan loyiha doirasida va ma'lum vaqt oralig'ida individual klaster a'zolari o'rtasida o'zaro manfaatli munosabatlarni o'rnatish imkonini beradi.

Demak, pedagogik ta'lim innovatsion klasteri nafaqat ta'lim tizimini yaxshilash, balki ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, ta'limda yangi texnologiyalarni keng joriy etish, va umuman o'quv jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, ta'lim sohasidagi samaradorlikni oshirish va pedagogik fikrni rivojlantirishga xizmat qiladi deb ko'rsatadi.

Ikkinchi bob «**Modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida o'quv-tarbiya faoliyatini klaster texnologiyalari asosida takomillashtirishning konseptual asoslari**» deb nomlanib, unda ta'lim muassasalari rahbarlari innovatsion boshqaruv faoliyati yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlari pedagogik jarayonlarni ilmiy-metodik asosda tashkil etish va takomillashtirish, uning natijaviyligini ta'minlash, qulay ta'limiy muhitni qaror toptirish va barqarorlashtirish uchun jamoada zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, o'quvchilar va pedagog xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ta'lim muassasasi bilan oila, mahalla va ota-onalar mehnat qiladigan tashkilot, korxona, muassasalar hamkorligini ta'minlashga asosiy e'tiborni qaratish kerakligi haqida qarashlar tadqiq qilingan.

Ta'lim tizimining zamonaviylashtirilishi va sifatini oshirish uchun klaster texnologiyalarini joriy etish dolzarb masalalardan biridir. Klaster texnologiyalari yordamida o'quv-tarbiya jarayonida ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlik, resurslar almashinuvi va innovatsion metodlarni integratsiyalash mumkin. Bu yondoshuv ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi va o'quvchilarga nafaqat nazariy, balki amaliy bilimlar ham taqdim etishga imkon yaratadi.

O'quv-tarbiya faoliyatini takomillashtirishning konseptual asoslari ta'lim tizimidagi innovatsion yondoshuvlarni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslaridan iborat. Bu jarayon quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- **Talablar va ehtiyojlarni tahlil qilish:** o'quvchilarning zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni aniqlash. Bu o'quvchilarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlariga mos keladigan o'quv dasturlarini ishlab chiqishga imkon beradi.

- **Pedagogik innovatsiyalar:** o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va ularni kompleks, ko'p yo'nalishli bilimlarga ega qilish uchun pedagogik innovatsiyalarni joriy etish zarur. Innovatsion metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodiy va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

- **Integratsiya va hamkorlik:** o'quv-tarbiya faoliyatining samaradorligini oshirish uchun ta'lim tizimi ichida va ta'lim tizimi bilan boshqa sohalar o'rtasida integratsiyalashgan hamkorlik zarur. O'quvchilarning o'zaro faoliyati, jamoa ishlarida

qatnashishi va o‘zaro bilim almashish jarayonini tashkil etish uchun o‘qituvchilar va ilmiy-tadqiqot muassasalari o‘rtasida hamkorlik zarur.

• **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tatbiqi:** zamonaviy axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarning o‘rganish faoliyatini yaxshilash va o‘qituvchilarni pedagogik yangiliklarga moslashtirishda muhim vositadir.

• **O‘quv jarayonining moslashuvchanligi:** ta’lim jarayonini zamonaviy talablar va o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish. Bu esa o‘quvchilarning bilim olish jarayonidagi motivatsiyasini oshiradi.

Innovatsion jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo‘nalishi ta’lim tashkilotining qaysidir bir rahbariga emas, balki rahbarlarning barchasiga tegishli bo‘lib, ularning har biri o‘z rahbarlik faoliyati jarayonida:

– ta’lim muassasasida barcha pedagog xodimlarga innovatsion ijodiy muhit yaratish, ularda tashabbuskorlik, talabchanlik va yangiliklarga intilish va qiziqishni tarkib toptirish;

– innovatsion ta’lim faoliyatini moddiy, ma’naviy rag‘batlantirish va har taraflama qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish;

– ijobiy natija berayotgan innovatsion faoliyatlarni pedagogik jamoaga singdirish, targ‘ib qilish va ommalashtirish;

– innovatsion ta’limiy jarayonlarning asoslanganlik darajasini belgilash;

– innovatsion ta’limning ixtiloflilik, ahamiyatlilik, tavakkalchilik darajasini aniqlash;

– innovatsion klasterli ta’limning turli vaziyatlarga aloqadorlilik, strukturaviyligi va boshqaruvchanligi hamda ijtimoiy mo‘ljallanganligi, ularning subyektlar tomonidan qabul qilinishini inobatga olgan holda, innovatsion faoliyatni tashkil etish kabi bir qator vazifalarni amalga oshiradilar.

O‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish jarayonlarini takomillashtirishda barcha jamoatchilik markazlari, korxona, muassasa, tashkilot, ilmiy-ijodiy uyushmalar, jamoat birlashmalari bilan hamkorlikda ishlaydi. Ta’lim tashkiloti rahbarlari boshqaruv faoliyatni innovatsion yo‘nalishlari bo‘yicha o‘z funksional vazifalarini amalga oshirishida tizimli yondashuvni tatbiq etishi muhim ahamiyatga ega. Ta’lim muassasasi rahbari muassasaning rivojlanish moyilligi va dinamikasini aniqlaydi, ta’lim muassasasi va pedagog xodimlar faoliyatini takomillashtirish, innovatsion faoliyatni tashkil etish yo‘nalishlarida qarorlar qabul qiladi hamda qaror va buyruqlarning ijrosini ta’minlaydi. Islohotlar, o‘zgarishlar va yangiliklarga bo‘lgan qarshiliklarni qanday yengib o‘tish mumkin? Respublikada islohotlar va jadal o‘zgarishlar yuz berayotgan davrda eskirgan andoza va shakllarga faol barham berilmoqda. Bu o‘zgarishlarni hamma ham to‘g‘ri qabul qilmasligini tabiiy hol deb hisoblash mumkin. Islohotlarga qarshilik ko‘rsatishga to‘qnashib turiladi. Shu sababli rahbar oldida turgan bir qator qarshiliklarni yengish, jiddiy qaror chiqarish muammosi vujudga keladi. Chunki bu muammoni hal qilmay turib, islohotlar yo‘lida davom etish mumkin emas. Shubhasiz, o‘zgarishlarga bo‘lgan qarshiliklarni yengib o‘tish uchun eng yaxshi vaqt bu – qarshiliklar vujudga kelguncha bo‘lgan davrdir. Boshqacha aytganda, rahbar qarshiliklarning oldini ola bilishi kerak.

So'nggi yillarda ta'limga nisbatan ko'plab yangicha yondashuvlar, innovatsiyalar joriy etilib, taqdim qilinayotgan ta'limning innovatsion klasteri o'ziga xos belgilari bilan ulardan ajralib turadi. Klasterli yondashuv asosida ta'lim samaradorligini oshirish fan va ta'limni, pirovardida, amaliyotda jamiyatni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni izlash hamda uni amalga oshirish imkonini yaratadi. Klaster doirasidagi bir nechta subyektlarni o'zaro integratsiyalash murakkab, ko'p tarmoqli jarayondir. Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida shunday yangi mexanizm yaratilishi hayotiy zaruratga aylandiki, unda ta'lim turlari o'rtasida o'zaro nazorat hamda raqobat, manfaatlarning hamkorlikda qondirilishi ham ta'minlanishi zarur. Klaster texnologiyalarini ta'lim tizimiga integratsiyalash o'quv-tarbiya faoliyatini modernizatsiyalash va o'quvchilarni yuqori sifatli ta'lim bilan ta'minlash uchun samarali yondashuvdir. Bu konsepsiya o'quv muassasalarining o'zaro integratsiyasi, resurslarni birlashtirish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan. Ta'limning sifatini doimiy ravishda monitoring qilish, o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va sanoat bilan hamkorlikni mustahkamlash orqali bu g'oya nafaqat ta'lim tizimini rivojlantiradi, balki o'quvchilarga global va mahalliy miqyosda muvaffaqiyatli bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Demak, modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida o'quv-tarbiya faoliyatini klaster texnologiyalari asosida takomillashtirish nafaqat ta'lim tizimining sifatini oshirish, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi. Klaster texnologiyalari o'quvchilarni zamonaviy talablar asosida bilim olishga tayyorlash, o'qituvchilarning pedagogik malakasini oshirish va ta'lim tizimida yangiliklarni joriy etish uchun samarali vosita bo'lishi mumkin deb ta'kidlagan.

